

Toshkent shahar statistika boshqarmasi



Toshkent shahrida 2019 yil yanvar-fevral oylari uchun sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining asosiy ko'rsatkichlari


RAQAMLAR:

- Sanoat mahsuloti hajmi **6 648,7 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **101,9 %** ni tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **2 590,9 mlrd.so'mni** va o'sish sur'ati **106,2 %** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmadagi ulushi **39,0 %** ni tashkil etdi.
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **71,1 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan 6 648,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 101,9 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat hajmi indeksi 100,3%, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 100,9%, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash -130,1% va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 107,1% ga o'sishi hisoblanadi.

2019 yilning yanvar -fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, % d



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida oʻrganilganda, joriy yilning yanvar-fevral oyida Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 207,1 mlrd.soʻmlik maxsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat maxsulotlarining 3,1 % ni tashkil etgan.

Togʻ-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi boʻyicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan 101,4% va boshqa togʻ-kon sanoati faoliyati esa 98,2 % ga oshganini kuzatish mumkin.

2018 yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan (mln.sum)	Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019- yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan (mln.sum)	2018-yil yanvar-fevralga nisbatan % da
134703,6	<p>Tabiiy gaz va xom neft qazib olish</p> 	180592,6	101,4
19386,1	<p>Boshqa togʻ-kon sanoati</p> 	24035,7	98,2


Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati

2019 yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqaradigan maxsulotlar hajmi 5631,3 mlrd.so‘mni va o‘tgan yilga nisbatan 100,3 % o‘shish sur‘atini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ining ulushi 4,7 % ni, o‘rta-yuqori texnologiyali – 23,6 %, o‘rta-quyi texnologiyali – 35,5 % , quyi texnologiyali – 36,2 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

- Yuqori texnologiyali
- O‘rta-yuqori texnologiyali
- O‘rta-quyi texnologiyali
- Quyi texnologiyali



O‘z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan koks va neft mahsulotlar 39,6% ga, elektr asbob uskunalari ishlab chiqarish 25,8% ga kamaygan bo‘lsa, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish -35,6ga, mebel ishlab chiqarish 32,9 % ga, ichimliklar ishlab chiqarish 24,1 % ga , mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metal mahsulotlari 22,7% ga oshganligini kuzatamiz.

2018 yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan (mln.sum)	Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati	2019 yil yanvar-fevral- ishlab chiqarilgan (mln.sum)	2018-yil yanvar-fevralga nisbatan %da
489024,0	<p align="center">Oziq-ovqat mahsulotlari</p> 	617939,8	99,4
263037,0	<p align="center">Ichimliklar ishlab chiqarish</p> 	376136,0	124,1
3446,6	<p align="center">Tamaki mahsulotlari</p> 	4385,6	107,7
267016,2	<p align="center">Tekstil mahsulotlari</p> 	314301,2	96,6

Farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari

131708,3



156309,9

88,8

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar

30041,1



45350,2

135,6

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 654,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 9,9 % ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari mahsulotlari o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 130,1% ga ko'paygan.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 155,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 2,3 % ni) tashkil etganligi kuzatildi.

Bunda 2019 yil yanvar-fevral oylarida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,1 % ga ko'paygan.

Iste'mol tovarlarni ishlab chiqarish


Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent shahridagi sanoat korxonalarini tomonidan 2590,9 mlrd.so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarildi va 2018 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,2 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari, %



Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 788,1 mlrd.so'mga etkazilib, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 30,4% , nooziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1684,7 mlrd.so'm, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 65,0%, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 118,1 mlrd.so'm hisoblanib jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 4,6% tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-fevral oyida tumanlarning jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Toshkent shahar iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng kup ulush Olmazor tumani (shahar iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining (13,9 % ulushini), Yashnobod (13,5 %), Sirg'ali (10,8 %) va Chilonzor (10,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulush Mirobod (6,1 %) tumani, Yunusobod (6,4 %) va Bektemir (7,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2019 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarda iste'mol tovarlarni
ishlab chiqarish hajmi (% , da)**




Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng yirik o'sish suratlari Yashnobod tumani (118,2%), Bektemir tumani (113,7 %) va Sergeli tumanlarida (107,2) kuzatilgan.

Eng kam o'sish sur'atlari esa Chilonzor (100,8%) va Shayxontohur tumani(102,7%).

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Yashnobod tumani (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 16,3 % ulushini), Mirzo Ulug'bek tumani (11,8 %), Shayxontohur tumani (10,8%), Mirobod tumani (10,6 %) va Olmazor tumani (10,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shuning bilan birga eng kam ulush Yakkasaroy (4,7 %), Uchtepa (5,6 %), Bektemir (6,3 %), tumanlariga to'g'ri keladi.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulush – 71,1 % ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchtepa tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 92,7 %), Yakkasaroy (92,0%), Olmazor (89,8) va Yunusobod (85,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mirzo Ulug'bek (51,2 %), Mirobod (53,9 %) va Shayxontoxur (63,1) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da



Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun ma'sul: Nishanbaeva N.
 Aloqa telefoni: (0371) 230-88-16